

2021-yil 4-sentyabr holatiga

TAF!2021 ENG YAXSHI REKLAMA TANLOVINING REGLAMENTI

- 1. UMUMIY QOIDALAR**
- 2. TANLOVGA ISHLARNI TAQDIM ETISH QOIDALARI**
- 3. TANLOV BOSQICHLARI**
- 4. TANLOV TASHKILOTCHILARI**
- 5. HAKAMLAR HAY'ATI**
- 6. TANLOV ISHTIROKCHILARI**
- 7. TAQDIM ETILADIGAN ISHLARGA TALABLAR**
- 8. ARIZA MAZMUNI**
- 9. NOMINATSIYALAR**
- 10. HAY'AT VA ISTE'MOLCHILAR OVOZ BERISHI TARTIBI**
- 11. OVOZ BERISH MEZONLARI**
- 12. MUKOFOTLAR**
- 13. KONTAKT AXBOROT**

Ilova Arizani rasmiylashtirish shablonlari

8. UMUMIY QOIDALAR

TAF! (Tashkent Advertising Festival!) — har yilgi Toshkent 2eclama festivali – O‘zbekiston marketing va 2eclama sohasidagi asosiy hodisa bo‘lib, ikkita asosiy blokni o‘z ichiga oladi: eng yaxshi 2eclama tanlovi va xalqaro 2eclama konferensiyasi.

TAF! 2021 eng yaxshi 2eclama tanlovi — O‘zbekiston Respublikasi hududida 2019-2020 yilda amalga oshirilgan, jumladan TAF! Tanloviga oldin ham taqdim etilgan eng yaxshi marketing loyihalarini aniqlash.

TAF! Missiyasi

Brendlar rivojlanishiga, marketing va 2eclama sohasidagi mutaxassislarni birlashtirish va o‘qitishga xizmat qilish. G‘oyalar, ularning samaradorligi, shuningdek brendlarning iste‘molchilar bilan kommunikatsiyasini professional qiyoslash orqali eng yaxshi marketing loyihalarini aniqlash va brendlarni muvafaqiyatli ilgarilatishga xizmat qilish.

2. TANLOVGA ISHLARNI TAQDIM ETISH QOIDALARI

1. Brendlar (yuridik shaxslar) eng yaxshi 2eclama tanloviga arizani taqdim etish tashabbuschilari bo‘lishi mumkin.
2. Tanlovda ishtirok etish uchun www.marketing.uz saytida avtorizatsiyadan o‘tish, arizadagi tanlov ishtirokchisi kontakt ma‘lumotlari, nominatsiya nomi, brend nomi va loyiha nomlanishi (qisqacha) kabi barcha kerakli satrlarni to‘ldirish va tanlovga taqdim etiladigan ishni yuklash (taqdimot yoki YouTube’dagi videoga havola) kerak. Ish yuklangandan keyin “Jo‘natish” tugmasini bosish orqali arizani yuborish kerak bo‘ladi. Tanlov tashkilotchisi olingan arizani tanlov talablariga muvofiqligi yuzasidan tekshiradi va ishtirokchiga, ariza qabul qilingandan keyin 3 ish kuni davomida, qatnashish haqini to‘lash uchun shartnoma yo‘llaydi. Ishtirok haqi to‘langach, tanlov ishi www.marketing.uz saytida aks etadi.
3. Tanlovda ishtirok – pullik. Ishtirok narxi bitta taqdim etilgan ariza uchun 500 000 so‘mni tashkil qiladi. To‘lov valyutada amalga oshirilganda narx Mbning to‘lov kunidagi kursi bo‘yicha hisoblanadi.
4. O‘zbekiston Marketing uyushmasi a‘zolari va hamkorlari uchun 50% miqdorida chegirma taqdim etiladi.
5. TAF! 2020 kreativ tanloviga taqdim etilgan ishlar takroran topshirilishi mumkin va ular bepul qabul qilinadi.
6. To‘lov yuridik shaxslar orasida bank o‘tkazmasi bilan shartnoma hamda akt asosida amalga oshiriladi.
7. Bitta nominatsiyaga taqdim etilgan ish ariza sanaladi. Agar bitta ish ikki va undan ko‘p nominatsiyaga taqdim etilsa, topshirilgan arizalar soni nominatsiyalar soniga tenglashtiriladi. Ishtirok har bir taqdim etilgan ariza uchun reglamentning ushbu bo‘limi 3- bandiga muvofiq to‘laydi.
8. Ish quyidagi talablarga javob bergan holdagina tanlov ishtirokchisi deb sanaladi: ish o‘z vaqtida taqdim etilgan, ish mazmuni tanlov nominatsiyalariga muvofiq kelsa, shartnoma bo‘yicha to‘lov amalga oshirilgan bo‘lsa.
9. Arizasiz, saytda atvorizatsiyasiz va to‘lovsiz ishlar tanlovga qo‘yilmaydi.

10. Ishtirok etish haqini to'lash g'alabani kafolatlamaydi.
11. Tanlovda ishtirok etishga g'oya yoki amalga oshirilishi boshqa brendlar keyslaridan ko'chirib olingan ishlar qabul qilinmaydi. Feyk ishlar aniqlanganda tanlov tashkilotchisi yoki hakamlar hay'ati ishtirok haqini qaytarmagan holda ishni ishtirok etishdan chiqarish huquqiga ega.
12. Hakamlar hay'ati tanlov ishlarini baholashning istalgan bosqichida ishni boshqa nominatsiyaga ko'chirish huquqiga ega.
13. Talovda ishtirok etish ishtirokchi ushbu reglament bilan tanishganligini va unga rozi ekanligini anglatadi. Ishtirok to'g'risidagi shartnoma rozilikning yozma tasdig'li sanaladi.
14. Tanlovga 2019, 2020-yil davomida va 2021-yilning 1-iyuniga qadar yakunlangan, jumladan TAF!ga avvalda taqdim etilgan loyihalar qabul qilinadi.
15. Tanlov ishtirokchisi mualliflik huquqlariga rioya etilishini (musiqa, foto, matnlar va boshqalarni qonuniy ishlatilishini) kafolatlaydi va bu boradagi barcha ehtimoliy bahsli masalalarni mustaqil hal etish majburiyatini zimmasiga oladi. Taqdim etiladigan tanlov ishlarining mualliflik mansubligi borasidagi javobgarlik tanlov ishtirokchisining zimmasidadir. Tanlov tashkilotchisi taqdim etiladigan ishlar muallifligi yoki plagiatligi bo'yicha javobgarlikni zimmasiga olmaydi.
16. Bahsli vaziyatlar yuzaga kelganda tanlov ishining maqomini belgilash to'g'risida qarorni hakamlar hay'ati qabul qiladi. Ishni taqdim etish uchun to'langan pul qaytarilmaydi.

3. TANLOV BOSQICHLARI

Tanlov ishlarini qabul qilish va haqini to'lash muddatlari – 2021 yil 1 iyuldan 2021 yil 6-sentyabr (shu kuni ham)gacha.

Ekspert hay'ati va iste'molchilar ovoz berishi – 2021 yil 7 sentyabr–1 oktyabr (shu kuni ham)gacha.

Tanlov natijalarini e'lon qilish – 2021 yil 9 oktyabrdagi Taqdirlash marosimida

4. TANLOV TASHKILOTCHILARI

Tanlov tashkilotchilari:

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi

O'zbekiston Marketing uyushmasi

5. HAKAMLAR HAY'ATI

Tanlov hakamlar hay'ati ekspertlardan – marketing, reklama sohasidagi professional tajriba va yutuqlarga ega yetakchi mutaxassislardan tashkil topadi.

Ekspertlar:

1. www.marketing.uz saytida tanlov ishlar bilan tanishadilar;
2. tanlov g'oliblari va sovrindorlarini aniqlaydilar;
3. Tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimida qatnashadilar.

Tanlov ekspertlari tarkibi:

No	Ekspert F.I.O.	Ish joyi (brend)
1	Abdullaev Daniyar	IJODIY AGENTLIK 360
2	Abiev Ilxom	AKFA ENGINEERING AND MANAGEMENT
3	Azizova Elnara	AIKB «IPAK YO'LI»
4	Arifxodjaeva Iroda	UZBEKINVEST
5	Axmedjanov Shuxrat	8 BIT
6	Axundjanova Shirin	NEST ONE
7	Barabanshikov Anton	MAKRO
8	Beknazarov Kamoliddin	GROSS INSURANCE
9	Vaade Timur	GOLDEN HOUSE
10	Gafarov Timur	MARS
11	Gudkovskaya Oksana	NESTLE
12	Djumaniyazov Alisher	ALPHA EDUCATION
13	Domlatjanov Umid	SARKOR
14	Ibragimov Ravshan	MCA
15	Ibragimova Elina	MA'NO BRANDING
16	Ilina Aleksandra	PEPSI
17	Kamalova Lola	HYUNDAI
18	Kahorov Djamshed	P&G, DURACELL, FATER GROU
19	Kashaeva Alina	TM ARTEL
20	Kim Sereja	SEKTA CREATIVE CREW
21	Kushenkova Olesya	EVOS
22	Latipov Botir	PROSPECT MEDIA AGENCY
23	Latipova Samira	EXPRESS 24
24	Lutfullaev Aziz	HAVAS
25	Mamutov Ruslan	UZCARD
26	Martusevich Anna	HYATT REGENCY TASHKENT
27	Muminova Kamilla	TBC BANK
28	Mutalov Avaz	FK «PAXTAKOR»
29	Nazarzoda Bobir	CLICK
30	Niyazov Sarvar	SQB
31	Nurmuxamedov Bobir	PAYME
32	Pak Yevgeniy	YAPONA MAMA
33	Raimov Akmal	DODO PIZZA
34	Raxmanova Zamira	TESTO BY ZAMIRA&CO
35	Rozmetov Zafar	ROZMETOV
36	Sadikova Maxbuba	HUMANS
37	Samikjanov Begzod	SAFIA
38	Sarkisyan Minas	WABI SABI

39	Seredin Dmitriy	TEHNIKUM
40	Stroeve Mariya	BEELINE
41	Fomina Nadejda	TEHNOMART
42	Saregorodseva Yustina	LES AILES, CHOPAR
43	Shakirov Muhammad Ali	SHAK'S MEDIA
44	Shermatova Nodira	PAYME
45	Yusufov Azizbek	FAZZ GROUP
46	Yakubova Shaxnoza	AKFA MEDLINE
47	Yakubxodjayev Feruz	WE DIGITAL
48	Yakupova Xilola	KNAUF

6. ISHTIROKCHILAR

1. Brend-reklama beruvchilar va agentlik-kompaniyalar, individual tadbirkorlar – reklama ishlab chiqaruvchilari va tarqatuvchilari tanlov ishtirokchilari sanaladi.
2. Mukofotlar ariza taqdim etgan va haqini to'lagan tanlov ishtirokchisiga taqdim etiladi.
3. Ariza topshirishda brend loyihada qatnashgan barcha ishlab chiqaruvchilar va reklamani tarqatuvchilarni ko'rsatish huquqiga ega. Loyiha g'alaba qozonganda, qatnashgan agentliklar ham qo'shimcha to'lov evaziga tayyorlanadigan sovrin dublikatini olishlari va reklama beruvchi brend bilan birga g'olib deb qayd etilishi mumkin.

7. TAQDIM ETILADIGAN ISHLARGA TALABLAR

1. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza www.marketing.uz saytida taqdim etiladi. Ro'yxatdan o'tish bilan bir vaqtda ishtirokchi saytga ish nomini yuboradi.
2. Tanlov ishlari taqdimot yoki video-rolik ko'rinishida (3 daqiqagacha) taqdim etilishi kerak.
3. Video-rolik YouTube.com kanaliga yuklanishi va unga havola tanlov arizasida ko'rsatilishi kerak.
4. Iste'molchilar o'zbek va rus tillarida ovoz berishlariga qulay bo'lishi uchun tanlov ishlari (taqdimot va video-rolik ko'rinishida) ham bir vaqtda ikki tilda: o'zbek va rus tillarida qabul qilinadi.
5. Tanlov ishtirokchisi ish kontentining tanlangan nominatsiyaga muvofiqligi yuzasidan javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.
6. Ekspertlar tomonidan g'oliblarni aniqlash natijalari 2021 yil 9 oktyabrdagi Taqdirlash marosimida e'lon qilinadi.

8. ARIZA MAZMUNI

Tanlov ishtirokchisi (brend) arizasining javob berishi kerak bo'lgan savollar

1. Reklama loyihasi hal etishi mo'ljallangan muammo yoki vaziyatni tavsiflang
2. Natijalarni hisoblash vositalarini ko'rsating. Bu brend ixtiyoriga ko'ra marketing va sotuvlar samaradorligi ko'rsatkichlari va koeffitsientlari (masalan, sotuvlar dinamikasi, qamrov, konversiya, taniqlilik, jalb etilganlik, tashriflar, bozordagi ulush va sh.k.) bo'lishi mumkin.

3. Natijaga olib kelgan loyiha g'oyasi, u qanday yuzaga kelgani haqida yozing.
4. Erishilgan natijalarni yoritib va foydalanilgan reklama kommunikatsiyalarini ko'rsating (ijtimoiy tarmoqlardagi video, TVdagi video, tashqi reklama, bosma reklama, qadoq, radio, blogerlar, flaerlar, promoaksiyalar, ivalentlar va sh.k.)
5. Ishni taqdim etishda g'oyaning asosiy unsurlariga e'tibor bering. Agar nimadir alohida e'tibor talab qilsa, alohida ko'rsating.
6. Agar ish mahsulot, dizaynning real namunalari namoyish etishni talab qilsa, bu unsurlarni tanlov tashkilotchilariga taqdim etish kerak.
7. Bir ish bir nechta nominatsiya talablariga muvofiq kelishi mumkin. Barcha mos nominatsiyalarda qatnashish tavsiya etiladi.

9. NOMINATSIYALAR

Tanlov nominatsiyalari:

1. Yangi mahsulot yoki xizmatning ishga tushirilishi
2. Rebranding
3. Bitta kommunikatsiya kanaliga ega kompaniya
4. Integratsiyalangan kompaniya
5. Mashhur shaxslar ishtirokidagi reklama kampaniyasi
6. SMM-kampaniya
7. Mavsumiy kampaniya
8. Komyuniti, hamjamiyat, sadoqatlilik dasturining yaratilishi
9. Milliy qadriyatlar ishtirokidagi kompaniya
10. Ijtimoiy muhim vazifalarning hal qilinishi

Yangi mahsulot yoki xizmatni joriy qilish

Xaridorlarga yangi mahsulot yoki xizmatni taqdim etishga qaratilgan kompaniya. Bu yangi brendlar, mavjud brendning yangi mahsulotlari yoki mahsulotlar safining kengaytirilishi bo'lishi mumkin.

Rebranding

Ham brendni, ham u ishlab chiqaradigan tovarni yoki uning tarkibiy qismlari: logotip, slogan, vizual bezaklarni o'zgartirish kampaniyasi.

Bitta kommunikatsiya kanaliga ega kompaniya

Bitta kommunikatsiya kanali (TV, tashqi reklama, matbuotda, radioda reklama va boshq.)ga ega yoki bitta maydonda amalga oshirilgan kampaniyalar.

Integratsiyalangan kompaniya

Bir necha kommunikatsiya kanallariga ega reklama kampaniyasi (TV, tashqi reklama, matbuotda, radioda reklama va boshq.)

Mashhur shaxslar ishtirokidagi reklama kampaniyasi

Mashhur shaxs/ta'sir agenti – selebriti, inflyuenser, bloger – iste'molchining e'tibori va qiziqishini bendga qaratish uchun muvaffaqiyatli foydalanilgan kampaniya.

SMM-kampaniya

Ijtimoiy tarmoqlarni o'z auditoriyasi bilan muloqotdagi asosiy kommunikatsiya kanali sifatida qo'llagan reklama kampaniyasi.

Mavsumiy kampaniya

O'z marketing sa'y-harakatlarini iste'molchilarning mavsumiy faolligi yoki biror-bir voqea (masalan, Yangi yil, yozgi dam olish, qishki sport turlari, 8 mart va sh.k.) atrofida jamlagan reklama kampaniyalari.

Komyuniti, hamjamiyat, sadoqatlilik dasturini yaratish

Brendning faol hamjamiyatini tuzish va o'stirishga yoki xaridorlarning brendga sadoqatini oshirishga va ular o'rtasida uzoq muddatli munosabatlar o'rnatilishiga qaratilgan loyihalar.

Milliy qadriyatlar ishtirokidagi kampaniyalar

Milliy qadriyatlar, insaytlar va an'analarni o'z marketing maqsadlariga erishish uchun samarali va ta'sirchan qo'llay olgan kampaniyalar.

Ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni hal qilish

Biznes-maqsadlar va ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalar (salomatlik, ekologiya, ta'lim, jamiyat, oila)ni hal etishni samarali birlashtirgan va bu maqsadlarni brendning umumiy strategiyasi bilan muvaffaqiyatli bog'lay oldilar.

10. HAKAMLAR HAY'ATI VA ISTE'MOLCHILAR OVOZ BERISHI TARTIBI

1. Arizalarni qabul qilish muddati tugagach, ovoz berish jarayonlari boshlanadi:
2. **Ekspert hay'ati ovoz berishi**
Ovoz berishda Tanlov ekspertlar hay'ati qatnashadi. Ovoz berish moderatori De Facto marketing agentligi sanaladi.
3. **Iste'molchilar ovoz berishi**
Uzbrand telegram-botida iste'molchilarning ochiq ovoz berishida barcha istovchilar qatnashadi, ular brendlar va loyihalarga ovoz beradilar.
4. G'oliblar ekspertlar va iste'molchilar ovoz berishi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi.
5. Har bir nominatsiyada ekspertlar – oltin, kumush va bronza mukofoti sovrindorlarini, iste'molchilar – nominatsiya g'olibini aniqlaydilar.
6. Ekspertlar uch balli tizimda ovoz beradilar.
7. Shuningdek, tanlovda maxsus sovrinlar ko'zda tutilgan, ularning sohiblarini ekspert hay'ati aniqlaydi.

8. Ekspertlar ovoz berishi yakunlari Taqdirlash tantanali marosimida tanlov g'oliblari e'lon qilingandan keyin www.marketing.uz saytida e'lon qilinadi.
9. Iste'molchilar ovoz berishi statistikasi marketing.uz saytida real vaqt rejimida aks etadi.
10. Barcha istovchilar tanlov video-roliklari yoki taqdimotlari bilan tanishish uchun marketing.uz saytiga o'tishlari mumkin.
11. Tanlov tashkilotchilari tanlovni OAVda va internet-resurslarda yoritish uchun har qanday tanlov ishlaridan (mualliflikni albatta ko'rsatgan holda) foydalanish huquqiga egalari.

11. OVOZ BERISH MEZONLARI

Ekspert hay'ati ovoz berishi mezonlari

1. G'oyaning noyobligi
2. Uni amalga oshirishdagi professionallik
3. Oldinga qo'yilgan vazifani hal qilish nuqtai nazaridan loyihaning natijaviyligi

Iste'molchilar ovoz berishi mezonlari

1. G'oyaning noyobligi
2. Reklama qilinayotgan mahsulot jozibadorligi

12. MUKOFOTLAR

1. Ekspertlar "oltin", "kumush" va "bronza" mukofoti sovrindorlarini aniqlaydilar.
2. "Oltin", "kumush" va "bronza" bilan taqdirlangan ishtirokchilar g'olib diplomini, sovrindorlar diplomlari va TAF! 2021 tanlovi xos haykalchasini qo'lga kiritadilar.
3. "Yilning eng yaxshi reklama beruvchisi" maxsus mukofotini qo'lga kiritgan ishtirokchi diplom va TAF! 2021 tanlovi xos haykalchasini oladi.
4. "Yilning eng yaxshi reklama agentligi" maxsus mukofotini qo'lga kiritgan ishtirokchi diplom va TAF! 2021 tanlovi xos haykalchasini oladi.
5. Eng ko'p ovoz olgan loyiha "Yilning eng yaxshi reklama loyihasi" maxsus mukofoti bilan taqdirlanadi va unga diplom hamda TAF! 2021 tanlovi xos haykalchasi topshiriladi.
6. Ekspertlar ovoz berishi natijalarining va g'oliblarning e'lon qilinishi hamda mukofotlarni topshirish 2021 yil 9 oktyabrdagi Taqdirlash tantanali marosimida o'tkaziladi. Marosimga qadar tanlov g'oliblari va sovrindorlari to'g'risidagi axborot qat'iy maxfiy sanaladi va oshkor qilinmaydi.
7. Tashkilotchilar, hamkorlarning rasmiy murojaatlariga ko'ra, ekspert hay'ati bilan kelishgan holda, maxsus sovrinlar ko'rinishida qo'shimcha mukofotlarni belgilash huquqiga ega.

13. KONTAKT AXBOROTI

O'zbekiston Marketing uyushmasi

100007, Toshkent sh., Yashnobod t-ni, Qamashi ko'ch., 36

Tel.: +998 78 120-10-02, +998 78 120-10-12, +998 (97) 402-28-20, +998 (97) 430-28-20

e-mail: info@marketing.uz

sayt: <https://marketing.uz>

<https://t.me/uzbekmarketing>

https://instagram.com/uzbekmarketing?utm_medium=copy_link

<https://www.facebook.com/uzbekmarketing>

<https://www.youtube.com/c/MAKONMARKETINGUZ>

ILOVA

Arizani rasmiylashtirish shablonlari

<https://marketing.uz/uz/uploads/files/shablonuzb.pdf>